<p>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</p>	<p>12 kredit</p>
<p>O‘quv moduli mazmuni:</p>	<p>2.2.1 Zamonaviy fizioterapevtik asbob-uskunalar va ularni qo‘llanilishi.</p> <p>O‘zbekistonda tibbiyot sohasida ishlatilayotgan zamonaviy fizioterapevtik apparatlar haqida ma’lumot berish. Ko‘p funksiyali zamonaviy apparatlar va ularning ishlash prinsiplari haqida tushuncha berish. Hamshiralarni yangi zamonaviy fizioterapevtik apparatlar bilan ishlashga o‘rgatish. Tashxis va davolash usullarining samaradorligi</p>

haqida ma'lumot berish.

Apparatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, apparatlarning ishlash tartibini to'liq bilishi, texnika havfsizligiga rioya qila bilishi kerak. Nuga best apparati ko'p funksiyali massaj krovati, Nuga best apparatiga ko'rsatmalar va moneliklar haqida tushuncha berish. Nuga best apparatini ishlash algoritmi. BTL apparatlari (Traksion tortish apparati, Zarb tovushli terapiyaa). Ko'p funksiyali BTL apparti tuzilishi. BTL apparatda ishlash tartibi. ko'rsatmalarni va moneliklari haqida tushuntirish.

Davolash profilaktika muassasalari fizioterapiyaa bo'limlarida ishlatilayotgan zamonaviy fizioterapevtik apparatlar. Ko'p funksiyali zamonaviy apparatlar va ularning ishlash prinsiplari. Apparatlarning ishlash tartibi, ular bilan ishlaganda texnika havfsizligi qoidalari. Fizioterapevtik davo usullarini turli tizim kasalliklarida qo'llash hususiyatlari. Bir va undan ortiq muolajalarni bir-biriga mos kelishini aniqlash. Fizioterapevtik davo usullarini pediatriyada qo'llash hususiyatlari. Fizioprofilaktika tushunchasi, turlari. Organizmni chiniqtirish. Kasalliklarni oldini olishda fizik faktorlardan unumli foydalanish.

2.2.2 Turli kasalliklarda fizioterapevtik davolash usullarini xususiyatlari.

Turli kasalliklarda fizioterapevtik davolash usullarining ahamiyati. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida fiziodavolash juda ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi. Bunda asosiy usullar: elektroforez ya'ni dorilarni teri orqali kiritish, magnitoterapiyaa va davolovchi jismoniy mashqlar qo'llaniladi. Uning xususiyati yurakka ortiqcha yuklama bermaslik, bosqichma-bosqich ta'sir ko'rsatish. Nafas olish tizo'imi kasalliklarida. ya'ni, bronxit, astma kabi holatlarda bemorlar uchun ingalyatsiya, dori moddalarini nafas yo'llari orqali kiritish, UVCH va ultratovush terapiyaasi buyuriladi. Uning xususiyatlari yallig'lanishni kamaytiradi, balg'amni suyultiradi va uni chiqishini osonlashtiradi. Asab tizimi kasalliklarida, nevrit, radikulit, insultdan keyingi holatlarda bemorlarga elektrostimulyatsiya, darsonvalizatsiya, va magnitoterapiyaa buyuriladi. Xususiyatlari asab tizimi impulslarini tiklash va mushaklar faolligini yaxshilashdan iborat. Tayanch-harakat tizimi kasalliklarida bemorlarga parafin, ozokerit, ultratovush va lazer terapiyaasi qo'llaniladi. Xususiyati og'riqni kamaytirish, yallig'lanishni pasaytirish va harakatni tiklash.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida elektroforez, diadinamik toklar va mineral suvlar bilan davolash

	<p>buyuriladi. Uning xususiyati ichki a'zodar faoliyatini meyorlashtirish va spazmlarni kamaytirishdan iboratdir.</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> •Fizioterapiyaa bo'limlarida ishlatilayotgan zamonaviy fizioterapevtik apparatlarni; •ko'p funksiyali zamonaviy apparatlar va ularning ishlash prinsiplarini; •apparatlarning ishlash tartibini; •apparatlar bilan ishlaganda texnika havfsizligi qoidalarini; •fizioterapevtik davo usullarini turli tizim kasalliklarida qo'llash hususiyatlarini; •apparatlarning ishlash tartibini to'liq bilishi; •fizik faktorlardan unumli foydalanishni; •turli kasalliklarda fiziodavolashning ahamiyatini va uning xususiyatlarini; •turli kasalliklarda fiziodavolashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni; •yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida fiziodavolashning ahamiyatini, o'ziga xosligini; •nafas olish tizimi kasalliklarida bemorlarga muolajalarni o'tkazishni; •asab tizimi kasalligi bor bemorlarga fiziodavolashning ahamiyatini; •tayanch-harakat tizimi kasalliklarida fizioterapiyaaning o'ziga xosligini va ahamiyatini;
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Yangi zamonaviy fizioterapevtik apparatlar bilan ishlashni; • texnika havfsizligiga rioya qilishni; • dori moddalari bilan muolaja o'tkazishni; • tibbiy asboblarni bilan davolashni; • bir va undan ortiq muolajalarni bir-biriga mos kelishini aniqlashni; • yurak qon-tomir tizimi kasalliklari bor bemorlarda muolajalar o'tkazishni; • nafas olish tizimi kasalliklari bor bemorlarda fiziodavoning ahamiyatini va uni o'tkazishni; • asab tizimi kasalliklari bor bemorlarda fizioterapevtik muolajalarni o'tkazishni; • tayanch-harakat tizimi kasalliklarida bemorlarga

	fiziodavolash muolajalarini o'tkazishni;
--	--

**2.3. Modul. Elektr toki bilan davolash. Doimiy va impulsli toklar.
O'zgaruvchan toklar. Elektromagnit maydonlar.**

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>2.3.1 Elektroterapiya. Doimiy va impulsli toklar. Yuqori chastotali toklarni organizimga yuborish yo'li bilan kasalliklarni bartaraf etish va inson salomatligini saklash. Yuqori chastotali toklarni kulash. Davolanish samaradorligini oshirish. Darsonvalizatsiyaning ayrim xususiy usullari. Franklinizatsiya utkazishni. Past chastotali toklarni kulash. Davolanish samaradorligini oshirish. Galvanik toklarga fizik xarakteristika. Xujayra va to'qimalarda kechadigan biofizik jarayonlar. Odam organizmiga doimiy tokning ta'sir mexanizmi. Qo'llanilishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Elektroforezning afzalligi. Elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasi. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari.</p> <p>Galvanik toklarning fizik xarakteristikasi. Xujayra va to'qimalarda kechadigan biofizik jarayonlar. Odam organizmiga doimiy tokning ta'sir mexanizmi. Galvanizatsiya va dori elektroforezini qo'llashga umumiy ko'rsatma va mone'liklar. Elektroforez, elektroforezning afzalliklari. Galvanizatsiya va dori elektroforezining ba'zi hususiy uslublari. Elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasi. Bolalarda galvanizatsiya va elektroforez usullarini qo'llash. Past kuchlanishli va past chastotali impuls toklar bilan davolash. Qo'llaniladigan impuls toklar turlari. Diadinamik toklar, modullashtirilgan sinusoidal toklar ta'sir mexanizmi, qo'llash uslubi, ishlatiladigan apparatura. Ko'rsatma va mon'eliklar. Impulsli toklar, impuls shakllari va chastotasiga nisbatan klassifikatsiyasi. Davolovchi ta'sir mexanizmi, usullari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.</p> <p>2.3.2 Elektroforez usulida davolash. Elektroforezning afzalliklari. Elektroforez-bu fizioterapiyaa usuli bo'lib, dorivor</p>

moddalarni teri yoki shilliq qavat orqali elektr toki yordamida organizmga kiritishga asoslangan. Ushbu usulda past kuchlanishli doimiy elektr toki ishlatiladi va dorilar ion holatida to'qimalarga chuqurroq kirib boradi. Elektroforez jarayonida maxsus elektrodlar teriga joylashtiriladi; dorivor modda elektrod ostiga surtiladi yoki maxsus prokladkaga shimdiriladi; elektr toki ta'sirida dorining ionlari teri orqali o'tib, zararlangan joyga yetkaziladi. Bu usul yallig'lanish, og'riq sindromlari, asab tizimi kasalliklari, mushak va bo'g'im muammolarida keng qo'llaniladi. Elektroforezning afzalliklari: mahalliy ta'sirdori to'g'ridan-to'g'ri kasallangan joyga yetkaziladi, bu samaradorlikni oshiradi. Kam yon ta'sirlardori umumiy qon aylanishiga kam miqdorda tushadi, shu sababli nojo'ya ta'sirlar kamayadi. Og'riqsiz va qulay usul-protsedura odatda og'riqsiz bo'lib, bemorga katta noqulaylik tug'dirmaydi. Dorining uzoq ta'sirito'qimalarda "depo" hosil bo'lib, dorining ta'siri uzoq vaqt saqlanadi. Elektr tokining o'zi ham qon aylanishini yaxshilaydi, yallig'lanishni kamaytiradi.

2.3.3 O'zgaruvchan toklar va ularni qo'llanilishi.

2.4.3 Magnit maydoni bilan davolash.

Magnit maydonining fizik tasnifi. Doimiy, o'zgaruvchan, impulsli, magnit maydoni manbalari. Magnit maydon ta'sir mexanizmi. Magnit maydonining organizmga fiziologik ta'siri. Yuqori va ultrayuqori chastotali magnit maydoni bilan davolash.(induktotermiya) Qo'llash uslubi, ishlatiladigan apparatura, ko'rsatma, qarshi ko'rsatmalar. Elektroterapiyaaning zamonaviy davolash usullarini qo'llash.

Magnitoterapiya. Amplipulsterapiya Impulsli toklar, impuls shakllari va chastotasiga nisbatan klassifikatsiyasi (elektr uyqu, transkraniyal elektranalgeziya, diadinamik toklar (DDT), sinusoidal modullangan toklar, flyuktuorizatsiya, interferensterapiya. Davolovchi ta'sir mexanizmi, usullari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Magnitoterapiya. Magnit maydonining fizik tasnifi. Doimiy, o'zgaruvchan, impulsli, "yuguruvchi" magnit maydoni manbalari. Magnit maydon ta'sir mexanizmi. Ko'rsatma, qarshi ko'rsatmalar. Turli patologik xolatlarda xususiy usullari, Amplipulsterapiyaaning afzalligi. Davolovchi ta'sir mexanizmi, usullari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. O'zgaruvchan tok-vaqt o'tishi bilan o'z yo'nalishi va qiymati (kuchi) davriy ravishda o'zgarib turadigan elektr tokidir. Bunda tok sinusoida shaklida

	<p>o'zgarishi mumkin va u ma'lum chastota (Gs) bilan ifodalanadi. O'zgaruvchan toklarning asosiy xususiyatlari: Tibbiyotda o'zgaruvchan toklarning qo'llanilishi. O'zgaruvchan toklar fizioterapiyaada keng ishlatiladi. Ular organizmga turlicha ta'sir ko'rsatadi va davolash maqsadida qo'llaniladi. Diadinamik toklar rast chastotali o'zgaruvchan toklardir. Og'riqni kamaytirish va mushaklarni bo'shatishda qo'llaniladi. Interferens toklar ikkita o'rta chastotali toklar o'zaro kesishganda hosil bo'ladi. Chuqur to'qimalarga ta'sir qiladi. Qon aylanishini yaxshilaydi va yallig'lanishni kamaytiradi. Darsonvalizatsiya-yuqori chastotali va past kuchli toklar qo'llaniladi. Terini yaxshilash, qon aylanishini oshirish va asab tizimini tinchlantirishda ishlatiladi. UVCH (ultra yuqori chastotali terapiyaa)-elektromagnit maydon orqali ta'sir ko'rsatadi. Yallig'lanishga qarshi va isitish ta'siriga ega. O'zgaruvchan toklarning afzalliklari: chuqur to'qimalarga kirib borish imkoniyati. Og'riqsiz ta'sir ko'rsatishi. Qon aylanishini va modda almashinuvini yaxshilashi. Yallig'lanishni kamaytirishi. Reabilitatsiya jarayonini tezlashtirishi.</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Galvanik toklarning fizik xarakteristikasini; • odam organizmiga doimiy tokning ta'sir mexanizmini; • galvanizatsiya va dori elektroforezini qo'llashga ko'rsatma va mone'liklarni; • elektroforezning afzalliklarini; • galvanizatsiya va dori elektroforezining hususiy uslublarini; • elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasini; • bolalarda galvanizatsiya va elektroforezning ta'sirini; • past kuchlanishli va past chastotali impuls toklar ta'sir mexanizmini; • impuls toklar turlarini; • diadinamik toklar ta'sir mexanizmini; • modullashtirilgan sinusoidal toklar ta'sir mexanizmi; • impulsli toklar tasnifini; • ko'rsatma va mon'eliklarni; • elektroforez bilan davolashni; • UVCH terapiyaani kasalliklarni davolanishda ahamiyatini; • o'zgaruvchan toklar va ularni qo'llash prinsiplarini;

<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • elektroterapiyaaning ahamiyatini; -elektroterapiyaaning ahamiyatini; -galvanik toklarni qo'llashni; -muolaja vaqtida bemor holatini kuzatishni; -elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasini; -bolalarda galvanizatsiya va elektroforez usullarini qo'llashni; -past kuchlanishli va past chastotali impuls toklar bilan davolashni; -odam organizmiga doimiy tokning ta'sir mexanizmini; -galvanizatsiya va dori elektroforezini qo'llashga ko'rsatma va mone'liklarni; -elektroforezning afzalliklarini; -galvanizatsiya va dori elektroforezining hususiy uslublarini; -elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasini; -bolalarda galvanizatsiya va elektroforezning ta'sirini; -past kuchlanishli va past chastotali impuls toklar ta'sir mexanizmini; -impuls toklar turlarini; -diadinamik toklar ta'sir mexanizmini; -modullashtirilgan sinusoidal toklar ta'sir mexanizmi; -impulsi toklar tasnifini; -ko'rsatma va mon'eliklarni; -elektroforez bilan davolashni; -UVCH terapiyaani kasalliklarni davolanishda ahamiyatini; -o'zgaruvchan toklar va ularni qo'llash prinsiplarini;
---	--

2.4 Modul. Fototerapiyaa, ultratovush bilan davolash

<p>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</p>	<p>14 kredit</p>
	<p>2.4.1 Yorug'lik bilan davolash. Fototerapiya. Yorug'lik bilan davolash-fototerapiyaa-tibbiyotda turli kasalliklarni maxsus nurlar orqali davolash usuli hisoblanadi. Bu usul tabiiy yoki sun'iy yorug'lik manbalari orqali organizmga ta'sir qilib, biologik jarayonlarni faollashtiradi. Fototerapiyaaning asosiy turlari. Fototerapiyaa turli xil nurlardan foydalanishga qarab bir necha yo'nalishlarga bo'linadi: Ultrabinafsha (UV) nurlar bilan davolash Ko'pincha Psoriaz, Ekzema va vitiligo kabi teri kasalliklarida qo'llaniladi.</p> <p>Ko'k nurli fototerapiyaa Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchraydigan Sariqlikni davolashda juda samarali.</p> <p>Infraqizil nurlar Qon aylanishini yaxshilash, og'riqni kamaytirish va mushaklarni bo'shatish uchun ishlatiladi.</p> <p>Lazer terapiyaasi Aniq nuqtaga kuchli nur berish orqali to'qimalarni davolaydi. Masalan, kosmetologiya va oftalmologiyada keng qo'llaniladi.</p> <p>Yorug'lik bilan davolash. Yorug'lik spektri. Yorug'likning fiziologik ta'siri. Yorug'lik bilan davolashning zamonaviy usullarini qo'llash: bioptronoterapiyaa, kvant terapiya. Yorug'lik oqimining fizik xarakteristikasi. Turli spektrdagi nurlarning biologik ta'siri. Organizmda kechadigan fotobiologik jarayonlar.</p> <p>2.4.2 Ultratovush terapiya. Ultrofonoforez. Fizik omil tasnifi. Lazeroterapiyaa bilan davolash usullari. Ta'sir etish doirasi va samaradorligi. Ishlatish tartibi. Ultratovush terapiya. Ultrafonoforez. Vibroterapiya. Fizik omil tasnifi. Muhitga qarab ultratovushni yutilishi. Ultratovushning asosiy dozimetrik parametrlarni organizmga ta'siri. Ko'rsatma, qarshi kursatmalar. Qo'llaniladigan doza va usullari. Zarba to'lqini terapiya. Fizik omil tasnifi, fiziologik ta'siri. Ko'rsatma, qarshi kursatmalar. Qo'llaniladigan doza va usullari. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari. Istisno etiladigan kasalliklar guruxi. Yorug'lik</p>

	<p>bilan davolash. Yorug‘lik oqimining fizik xarakteristikasi. Turli spektrdagi nurlarning biologik ta’siri. Organizmda kechadigan fotobiologik jarayonlar. Ultrabinafsha nurlanishi. Bidoza aniqlash. Infraqizil nurlanishi. Lazerterapiya. Fotoxromoterapiya. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari. Ultratovush terapiya. Fizik omil tasnifi. Muhitga qarab ultratovushni yutilishi. Ultra tovushning asosiy dozimetrik parametrlarni organizmga ta’siri. Ko‘rsatma, qarshi kursatmalar. Qo‘llaniladigan doza va usullari. Ultrafonoforez. Vibroterapiya. Fizik omil tasnifi. Ultratovush bilan davolash. Qo‘llash uslubi, ishlatiladigan apparatura. Zarba to‘lqini terapiya. Fizik omil tasnifi, fiziologik ta’siri. Ko‘rsatma, qarshi kursatmalar. Qo‘llaniladigan doza va usullari. Turli patologik xolatlarda qo‘llaniladigan xususiy uslublari. Ultrabinafsha nurlanishi. Bidoza aniqlash. Infraqizil nurlanishi. Infraqizil, ultrabinafsha nurlar bilan davolash. Qo‘llash uslubi, ishlatiladigan apparatura. Ultrabinafsha nur bilan davolashning turli kasalliklarda hususiy uslublarini qo‘llash. Lazerterapiya. Fotoxromoterapiya. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari.</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Yorug‘lik bilan davolash usullarini; • yorug‘likning organizmga fiziologik ta’siri. • yorug‘lik oqimining fizik xarakteristikasini • yorug‘lik bilan davolashning zamonaviy usullarini; • turli spektrdagi nurlarning biologik ta’sirini; • ultratovush terapiyaaning organizmga ta’sirini; • ultratovushning asosiy dozimetrik parametrlarni organizmga ta’sirini; • ultratovush bilan davolash usullarini. • infraqizil, ultrabinafsha nurlar bilan davolash usullarni; • zamonaviy appar turlarini; • lazerterapiyaa, fotoxromoterapiyaa usullarini.
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Yorug‘lik bilan davolashda zamonaviy usullarni qo‘llashni; • bioptronoterapiyaa, kvant terapiyaa bilan davolashni; • ultrafonoforez qo‘llash texnikasini; • bidoza aniqlashni; • vibroterapiyaa o‘tkazish texnikasini;

**2.5 Modul. Baroterapiya. Aerozolterapiya. Ingalyatsion terapiya.
Azonoterapiyaa bilan davolash. Krioterapiya.**

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>2.5.1 Aerozolterapiya. Baroterapiyaa bilan davolash. Zamonaviy arozolterapiyaa, ingalyatsiya turlari va ahamiyati, qo'llaniladigan dori moddalari. Aeroiono- va gidroaeroionoterapiyaaning tutgan o'rni. Aerozollar dispersligining ahamiyati. Aerozolterapiyaa, aeroionoterapiyaa turlari va ularni o'tkazish uslublari. Baroterapiyaada qo'llaniladigan fizik omil, usullari, apparatlari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalari. Zamonaviy ingalyatsion terapiya. Ingalyatsion terapiyaada ishlatiladigan apparatura. Zamonaviy ingalyatorlar va ularni kasalliklar profilaktikasi va davolashda qo'llash. Nafas olish tizimi kasalliklarida arozolterapiyaaning ahamiyati.</p> <p>2.5.2 Azonoterapiya. Azonoterapiyaa xaqida tushuncha. Azonoterapiyaa o'tkazish usullari. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Ozonoterapiyaa-bu tibbiy usul bo'lib, u ozon (O₃) gazidan davolash maqsadida foydalanishni anglatadi. Ozon-kislorodning faol shakli bo'lib, u bakteriyalar, viruslar va zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ozonoterapiyaa turli usullarda amalga oshiriladi: qonni ozon bilan boyitish (avtogemoterapiyaa). Ozonni teri ostiga yoki mushakka yuborish. Ozonlashtirilgan suv yoki moydan foydalanish.</p> <p>2.5.3</p>
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Zamonaviy arozolterapiyaa turlarini; • ingalyatsiya turlari va ahamiyatini; • ingalyatsiyada qo'llaniladigan dori moddalarini; • aeroiono- va gidroaeroionoterapiyaaning tutgan o'rnini; • arozollar dispersligining ahamiyatini; • arozolterapiyaa, aeroionoterapiyaa turlari va ularni o'tkazish uslublarini; • baroterapiyaada qo'llaniladigan fizik omillarni; baroterapiyaa usullarini; • baroterapiyaani o'tkazishda qo'llaniladigan zamonaviy apparatlarni; • ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni;

	<ul style="list-style-type: none"> • azonoterapiyaa xaqida tushunchani; • azonoterapiyaa o‘tkazish usullarini; • ingalyatsion terapiyaaning ahamiyatini; • zamonaviy ingalyatsion terapiyaada ishlatiladigan zamonaviy apparatlarni; • Zamonaviy ingalyatorlarnikasalliklar profilaktikasi va davolashda qo‘llashni; • azonoterapiyaaning qo‘llanilishi; • azonoterapiyaaga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar;
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Zamonaviy aerazolterapiyaani qo‘llashni; • aeroiono- va gidroaerionoterapiyaani qo‘llashni; • aerazolterapiyaa, aeroionoterapiyaalarni o‘tkazish uslublarini; • baroterapiyaada qo‘llaniladigan apparatlarini ishlatishni; • azonoterapiyaaga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni; • zamonaviy ingalyatsion terapiyaada ishlatiladigan apparatla bilan ishlashni; • zamonaviy ingalyatorlar va ularni kasalliklar profilaktikasi va davolashda qo‘llashni; • azonoterapiyaaning qo‘llanilishi; • azonoterapiyaaga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar;

2.6 Modul. Tabiiy fizioterapevtik omillar. Balneoterapiya.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>2.6.1 Tabiiy fizioterapevtik omillar. Galoterapiyaa va gelioterapiya. Peloidoterapiya.</p> <p>Tibbiyot amaliyotida tabiiy omillar asosida davolash usullari qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelinadi va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Tabiiy fizioterapevtik omillar organizmga yumshoq, fiziologik ta’sir ko‘rsatishi, nojo‘ya reaksiyalar kamligi va rehabilitatsiya jarayonida yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bunday omillar qatoriga iqlim, quyosh nuri, havo va suv muolajalari, shuningdek, turli xil mineral suvlar va balchiqlar kiradi. Ular organizmning tabiiy himoya mexanizmlarini faollashtiradi, qon aylanishi va metabolik jarayonlarni yaxshilaydi, nerv tizimining faoliyatini muvozanatlashtiradi hamda ko‘plab kasalliklarda kompleks davolashning muhim qismi sifatida xizmat qiladi. Tabiiy omillar asosida davolashning eng qadimgi va samarali yo‘nalishlaridan biri — balneoterapiyaa, ya’ni mineral suvlar bilan davolashdir. Balneoterapiyaa ichish,</p>

	<p>cho‘milish, dush, irrigatsiya va inhalatsiya kabi turli usullar orqali amalga oshiriladi va organizmga ko‘p qirrali ta‘sir ko‘rsatadi. Mineral suvlarning kimyoviy tarkibi, harorati, gazlar bilan to‘yinganlik darajasi va fizik xususiyatlari kasallikning turiga qarab shifobaxsh natija beradi. Bu muolaja ovqat hazm qilish tizimi, teri kasalliklari, mushak-tayanch apparati, qon-tomir hamda endokrin tizimlar faoliyatini yaxshilashda alohida ahamiyatga ega. Ushbu mavzu tabiiy fizioterapevtik omillarning turlari, ularning organizmga ta‘sir mexanizmlari, balneoterapiyaaning ilmiy asoslari va amaliy qo‘llanilishiga bag‘ishlanib, zamonaviy reabilitatsiya va sanator-kurort davolash tizimida ularning o‘rnini chuqur yoritishga qaratilgan. Quyosh nurining energiyasi va havoning ta‘siri. Gelioterapiya. Quyosh-havo vannalari. Solyariylar, qo‘llash uslublari, dozirovkasi. Ko‘rsatma va mon‘eliklar. Galoterapiya. Havo vannalari. Ko‘rsatma va mon‘eliklar. Tibbiyot hamshirasining quyosh va havo vannalarini o‘tkazishda vazifalari. Suv bilan davolash. Chuchuk suv bilan davolash - gidroterapiyaa, mineral suv bilan davolash – balneoterapiya. Mineral suvlar klassifikatsiyasi, uslublari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalari. Mahalliy va umumiy suv muolajalari. Suvlarning umumiy va xususiy ta‘siri, tashqi va ichki qo‘llanish usullari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar.</p> <p>2.6.2 Balchiq, ozokerit va parafin bilan davolash.</p> <p>Balchiq bilan davolash (peloidoterapiyaa). Balchiq turlari va uning tarkibi. Balchiqning asosiy fraksiyalari va qo‘llash usullari. Balchiq, parafin, ozokeritning organizmga fiziologik ta‘siri. Balchiqni saqlash, isitish texnikasi. Balchiq,loy va qum bilan davolash texnikasi. Ko‘rsatma va mon‘eliklar. Parafin va ozokeritning xususiyatlari va tarkibi. Parafin, parafin applikasiyalarini tayyorlash va qo‘llash usullari. Parafin vannachalari, qavatlash usullarida davolash.Ishlatilgan parafinga qayta ishlov berish qoidalari. Ozokerit, uni ishlatishga tayyorlash texnikasi. Ozokerit bilan davolash usullari. Ta‘sir mexanizmi. Organizmning fiziologik reaksiyasi. Qo‘llash usullari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Ishlatilgan parafinga kayta ishlov berish qoidalari.</p>
<p>O‘quv moduli yakunida</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Quyosh nurining energiyasi va havoning organizmga ta‘sirini;

tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • quyosh-havo vannalarini qo‘llash uslublarini; • gelioterapiyaaning dozirovkasini; • ko‘rsatma va mon’eliklarni; • galoterapiyaa, havo vannalarini organizmga ta’sirini; ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni; • tibbiyot hamshirasining quyosh va havo vannalarini o‘tkazishda vazifalarini; • suv bilan davolash usullarini; • chuchuk suv bilan davolash turlarini; • mineral suvlar klassifikatsiyasini; • ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarini; • mahalliy va umumiy suv muolajalarini; • suvlarning umumiy va xususiy ta’sirini; • balchiq turlari va uning tarkibini; • balchiqning asosiy fraksiyalari va qo‘llash usullarini; • balchiq, parafin, ozokeritning organizmga fiziologik ta’sirini; • parafin va ozokeritning xususiyatlari va tarkibini; • ishlatilgan parafinga qayta ishlov berish qoidalarini; • ozokeritni ishlatish va tayyorlash texnikasini; • ozokerit bilan davolash usullarini; • ozokeritning organizmga ta’sir mexanizmini; • ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Quyosh-havo vannalarini qo‘llashni; • chuchuk suv bilan davolashni; • parafin applikatsiyalarini tayyorlash va qo‘llashni; • parafin vannachalari, qavatlash usullarida davolashni; • ishlatilgan parafinga qayta ishlov berishni; • ozokerit bilan davolashni; • balchiqni saqlash, isitish texnikasini; • balchiq,loy va qum bilan davolash texnikasini; • balchiq,loy va qum bilan davolashni.

2.7 Modul. Termik omillar bilan davolash. Gidroterapiyaa-suv bilan davolash.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>Fizioterapiya tibbiyotning organizmga tabiiy va sun’iy fizik omillar orqali ta’sir ko‘rsatib davolashga qaratilgan muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu omillar ichida termik ta’sir vositalari va gidroterapiya keng qo‘llaniladigan, klinik jihatdan samaradorligi yuqori bo‘lgan muolajalar sirasiga kiradi. Termik omillar bilan</p>

	<p>davolash issiqlik va sovuqlikning fiziologik xususiyatlaridan foydalanib, to‘qimalarda qon aylanishini yaxshilash, metabolik jarayonlarni faollashtirish, og‘riqni kamaytirish va yallig‘lanish jarayonlarini pasaytirishga yordam beradi. Issiqlikning atrof-muskul tizimi, bo‘g‘imlar, periferik asablar va teri osti to‘qimalariga ijobiy ta’siri uni keng ko‘lamdagi kasalliklarda qo‘llash imkonini beradi.</p> <p>Gidroterapiya, ya’ni suv bilan davolash esa termik, mexanik va kimyoviy omillarni birlashtirgan holda ko‘p qirrali shifobaxsh ta’sir ko‘rsatadi. Suvning harorati, bosimi, zichligi va harakatlanuvchanligi bemorga kompleks fiziologik ta’sir ko‘rsatib, qon aylanishini yaxshilaydi, mushaklarni bo‘shashtiradi, asab tizimini tinchlantiradi hamda immun jarayonlarni faollashtiradi. Gidroterapiyaning vannalar, dushlar, kompresslar, suv osti massaji kabi shakllari ko‘plab somatik, nevrologik va ortopedik holatlarda samarali qo‘llaniladi.</p> <p>Ushbu mavzu termik omillarning turlari, ularning organizmga ta’sir mexanizmlari, gidroterapiyaning asosiy usullari va ularning klinik qo‘llanilishiga bag‘ishlanib, fizioterapiyaning zamonaviy amaliyotidagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Fizioterapiyaning mohiyatini: Fizioterapiya organizmga tabiiy va sun’iy fizik omillar orqali ta’sir ko‘rsatib davolash yo‘nalishi ekanligini; <input type="checkbox"/> Termik ta’sir mexanizmlarini: Issiqlik va sovuqlikning organizmga ta’sirini, ya’ni ular qanday qilib to‘qimalarda qon aylanishini yaxshilashi, metabolizmni (modda almashinuvini) faollashtirishi, og‘riq va yallig‘lanishni kamaytirishini; <input type="checkbox"/> Issiqlik ta’sir qiladigan tizimlarni: Issiqlikning tayanch-harakat (atrof-muskul) tizimi, bo‘g‘imlar, periferik asablar va teri osti to‘qimalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatlarini; <input type="checkbox"/> Gidroterapiya asoslarini: Suv bilan davolash o‘zida uchta asosiy omilni — termik (harorat), mexanik (bosim, harakat) va kimyoviy xususiyatlarni birlashtirishini;

	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Suvning fiziologik ta'sirini: Suv harorati, bosimi va zichligi qon aylanishini yaxshilashi, mushaklarni bo'shashtirishi, asab tizimini tinchlantirishi hamda immunitetni faollashtirishini; <input type="checkbox"/> Klinik ko'rsatmalarni: Hidroterapiya va termik muolajalar qaysi turdagi somatik, nevrologik va ortopedik kasalliklarda qo'llanilishini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Muolaja turlarini farqlash va tanlash: Bemorning holatiga qarab termik omillar (issiqlik/sovuqlik) yoki gidroterapiya usullarini to'g'ri ajrata olish va tavsiya qilish; <input type="checkbox"/> Gidroterapiya usullarini amalda qo'llash: Suv bilan davolashning turli shakllarini (vannalar, dushlar, kompresslar, suv osti massaji) muolaja qoidalariga muvofiq tashkil etish va o'tkazish; <input type="checkbox"/> Omillarni boshqarish: Muolaja davomida suvning harorati, bosimi va zichligini bemorning xohishi va tibbiy ko'rsatmalarga asosan to'g'ri sozlash; <input type="checkbox"/> Klinik samaradorlikni baholash: O'tkazilgan termik va gidroterapevtik muolajalarning bemor mushaklari bo'shashishi, og'riq kamayishi va umumiy asab tizimi tinchlanishiga ko'rsatgan ta'sirini kuzatish va baholash.

2.8. Modul. Kurortlar klassifikatsiyasi. O'zbekistondagi shifo maskanlari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>Kurortlar. Kurort omillari haqida tushuncha. Kurortlar klassifikatsiyasi. Kurort omillariga asoslangan kurort turlari. O'zbekistondagi shifo maskanlari. Sanatoriy-kurortga boruvchilarni saralash. Bemorlarni sanatoriy va kurortlarga yuborish uchun qarshi ko'rsatmalar. Aholi o'rtasida sanator-kurort tabiiy va fizioterapevtik muolajalarni targ'ib etish. aholining sanatoriya-kurortlarda davolanish ehtiyojlarini o'rganish, kurort resurslarini sanitariya muhofaza qilish.</p>

O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Kurort omillari haqida tushunchani; • kurortlar klassifikatsiyasini; • kurort turlarini; • O‘zbekiston shifo maskanlarini; • bemorlarni sanatoriy va kurortlarga yuborish uchun qarshi ko‘rsatmalarni; • kurort resurslarini sanitariya muhofaza qilishni; • sanatoriya va kurortlarga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni; • sanatori va kurortlarnig farqini;
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Sanatoriy-kurortga boruvchilarni saralashni; • aholi o‘rtasida sanator-kurort tabiiy va fizioterapevtik muolajalarni targ‘ib etishni; • aholining sanatoriya-kurortlarda davolanish ehtiyojlarini o‘rganishni; • sanatoriya va kurortlarga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni; • sanatori va kurortlarnig farqini;




2.9. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.



O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>Favqulodda vaziyatlar, halokatlar haqida asosiy tushunchalar. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Favqulodda vaziyatlarda o‘rta tibbiyot xodimining vazifalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko‘rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o‘chog‘ida birinchi yordam ko‘rsatish. O‘tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-o‘pka reanimatsiyasini “SAV” ketma-ketligida o‘tkazish algortmi.</p>
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulodda vaziyatlar va halokatlarning asosiy turlarini; • favqulodda vaziyatlar tasnifi, kelib chiqish sabablari, manbalarini; • tibbiy evakuatsiya bosqichlarini; • jarohatlanganlarni tibbiy saralash tartibini;



	<ul style="list-style-type: none"> • favqulotda vaziyatlarda oʻrta tibbiyot xodimining vazifalarini; • evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlarini; • ommaviy talofat oʻchogʻida birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir yurak qon–tomir yetishmovchiligida yurak-oʻpka reanimatsiyasini.
<p>Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulotda vaziyatlarda shikastlanish turiga qarab jabrlanganlarni tibbiy saralashni; • texnogen, tabiiy, ekologik tUSDagi favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam koʻrsatishni; • jabrlanganlarni evakuatsiya qilishni; • transport avariylarida yordam koʻrsatishni; • jarohatlarda ,suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam koʻrsatishni; • elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir zaharlanishlarda birinchi yordam koʻrsatishni; • sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam koʻrsatishni; • choʻkishda birinchi yordam koʻrsatishni; • boʻgʻilishda birinchi yordam koʻrsatishni; • hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam koʻrsatishni; • oʻtkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-oʻpka reanimatsiyasini asosiy tadbirlarning “SAV” ketma-ketligini bajarishni.
<p>Adabiyotlar:</p>	<p>1.D.Turaqulov,L.X.Musajonova.”Shoshilinch tez tibbiy yordam koʻrsatishda xamshiralik ishi”Oʻquv qoʻllanma.A.Navoi nashriyot.2019 yil.</p> <p>2. Y.Allayorov Y.Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”2017 y.Toshkent.</p> <p>3.Elektron taʼlim resurslari:</p> <p>1. Free online First Aid, CPR & AED kurslari</p> <ul style="list-style-type: none"> • FirstAidForFree.com — asosiy birinchi yordam, CPR (CPR), AED (avtomatik tashqi defibrillyator) va boshqa koʻplab mavzularni oʻz ichiga olgan bepul onlayn kurslar. <p>2. First Aid Online Classes — American Red Cross</p>

	<ul style="list-style-type: none"> American Red Cross (Amerika Qizil Xoch) tomonidan taklif etilgan onlayn birinchi yordam kurslari. Interaktiv modul orqali CPR, yaralanishlarni boshqarish va boshqa birinchi yordam ko‘nikmalari. <p>2. CPR, AED va First Aid kursi — Alison Free Course: CPR, AED and First Aid</p> <p>Alison platformasidagi bepul kurs. Bu kursda CPR, AED ishlatish va favqulodda vaziyatlarda tez yordam asoslarini mustaqil o‘rganish mumkin.</p>
--	--

3.2.2 Simulyatsion kurs (tibbiy trening) mazmuni

№	Bajariladi gan ishlar mazmuni	Eskizlar, chizmalar rasmlar,	Kerakli bo‘lgan jixozlar.	Bajarilish tartibi
1	Qo‘llarni yuvish	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372085</p>  	suyuk sovun, bir martalik qog‘oz salfetka.	<p>Ho‘llash va sovunlash: Qo‘llarni toza suv bilan ho‘llang va yetarli miqdorda sovun surting.</p> <p>Kaftlarni ishqalash: Kaftlarni bir-biriga qaratib, aylanma harakatlar bilan ishqalang.</p> <p>Barmoqlar orasini tozalash: O‘ng kaftni chap qo‘l orqasiga qo‘yib, barmoqlarni bir-birining orasiga kirgazing va ishqalang. So‘ngra qo‘llarni almashtiring.</p> <p>Barmoqlarni qulflash: Barmoqlarni bir-biriga ilashtirib (qulflab), barmoqlar orqa yuzasini qarama-qarshi kaft bilan ishqalang.</p> <p>Bosh barmoqlarni</p>

				<p>yuvish: Chap qo‘l bosh barmog‘ini o‘ng kaft bilan qisib ushlab, aylanma harakatlar bilan tozalang. Keyin o‘ng bosh barmoqni ham shunday yuving.</p> <p>Tirnoqlar va barmoq uchlari: O‘ng qo‘l barmoq uchlari chap kaftga qo‘yib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Bu tirnoq ostidagi mikroblarni ketkazadi. Keyin qo‘llarni almashtiring.</p>
2.	<p>Radial pulsni aniqlash. Bemorni qulay xolatda o‘tkazish yoki yotqizish.</p>	 	<p>Suyuq sovun, bir martalik qog‘oz salfetka. Sekundomer, harorat varaqasi, ruchka. Qizil ruchka.</p>	<p>Radial pulsni aniqlash.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Qo‘llar yuviladi va quritiladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi 3.Bemor qulay xolatda o‘tkaziladi yoki yotqiziladi. 4.Bemorning qo‘li bo‘sh egilgan holatda bo‘lishi kerak. 5.Radial pulsni aniqlashda tekshiruvchi bilakning ichki yuzasi, 1/3 pastki qismi, 1 – barmoq asosi bo‘ylab bilak arteriyasi tomini shunday ushlashi kerakki II, III, IV barmoqlari tomir ustida bo‘lishi kerak. 6.Pulsni tekshirayotgan vaqtda tekshiruvchi IV barmog‘i bemorning I



- barmog'i ro'parasida bo'lishi kerak. 7. Pulsasiya qilayotgan arteriyani uchchala barmoq bilan paypaslab, asta bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi 8. Pulsni aniqlayotganda uni maromiga, to'liqligiga ESLATMA: ahamiyat beriladi. 9. Bilak arteriyasida pulsni sanash mumkin bo'lmaganda uyqu va chakka sanaladi. 10. sohalarida Natijasi harorat varaqasiga qizil ruchka belgilanadi. ESLATMA: 1. Puls urishini bun dan tashqari quyi dagi sohalarida aniqlash mumkin: a) Karotid puls - uyqu arteriyasida, ya'ni kekirdakning yon tomonidagi anatomik chuqurchada aniqlanib, kattalarda o'pka - yurak reani matsiyasini o'tkaz ganda foydalaniladi. b) Braxial puls - elka arteriyasida, ya'ni tirsak chuqurchasi markazining kichik barmoq aniqlanadi,



tomonida asosan arterial qon bosimini o'lchashda foydalani ladi. v) Femoral puls – son arteriyasida, ya'ni tos suyagining yuqori oldingi qismi va chov birlashmasi o'rtasida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishi yoki o'pka – yurak reanimasiyasi o'tkazilganda ko'krak qafasining kompressiyalarini baholashda foydalaniladi. g) Pedal puls – oyoq kaftining dorzal yuzasida va to'piqning ichki (medial) o'simtasini orqa pastroq qismida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishini baholashda foydalaniladi d) Apikal puls – yurak cho'qqisi turtkisida, ya'ni chap o'mrov o'rta chizig'i bo'ylab, 4 – 5 qovurg'alararo sohada stetoskop yordamida eshitiladi. e) Apikal va radial pulsni aniqlash orqali puls defisitini (tanqisligi) aniqlash:

3

Arterial bosim (a.b.)ni o'lchash.



Tonometr, fonendoskop

Arterial bosim (a.b.)ni o'lchash.

1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
3. Arterial bosimni o'lchash uchun bemor qulay o'tkaziladi yoki yotqiziladi.
4. Bemorning o'ng yoki chap bilagini yelkasigacha yalang'ochlanadi.
5. Bemor qo'li krovat ga yoki stulga kafti bilan yuqoriga qaratib qo'yiladi
6. Tonometr vintelini burab manjetini havosi chiqariladi.
7. Bemorni tirsagidan 2-3 sm yuqoriga manjetni 2 barmoq sig'adigan qilib o'rab olinadi.
8. Bemorning tirsak bo'g'imida yelka arteriyasi tomir urishini 2,3,4 barmoqlar yordamida topiladi.
9. Tomir urgan joyga fonendoskop membranasini qo'yiladi, eshituv nayi quloqqa ulanadi.
10. Vintelni berkitib rezina ballon yordamida manjetkaga havoyuboriladi.
11. Vintelni ochib, havoyasta-

Диастолическое (нижнее)
артериальное давление



Уровень давления в момент
максимального расслабления
сердца

Систолическое (верхнее)
артериальное давление



Уровень давления в момент
максимального сокращения
сердца



sekin chiqariladi.

12. Havo chiqish vaqtida fonendoskopda tomir urishi eshitiladi. Bu sistolik bosim ko'rsatgichidir.

13. Havo chiqishi davomida tovushlar eshitilmay qoladi. Bu diastolik bosim ko'rsatgichini bildiradi.





14. Tovushlarning eshitilgan va eshitilmagan joylardagi natijani monometrdan yozib olinadi.





15. Vintelni to'liq ochib, manjetkani ichidagi xavo to'liq chiqariladi.

16. Manjetka bemor biligidan olinadi.

17. Natija xarorat varaqasiga belgilanadi.

ESLATMA: Normada sistolik bosim kattalarda 100-130 mm.simob ustuniga, diastolik bosim 60-90mm. simob ustuniga teng bo'ladi.

				
4	Nafas olish sonini sanash	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>   	<p>Sekundomer-1 ta, lotok – 1 ta, gemodi namika varaqlari-1 ta suyuq sovun -1 ml, qog‘oz sochiq-20sm, steril qo‘lqop -1 juft,70% li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha-10 gr, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi -500 ml</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qo‘llar yuviladi va quritiladi. 2. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. 3. Muolaja mohiyati va ketma-ketligi tushuntiriladi. 4. Bemordan muolajaga roziligi olinadi. 5. Kerakli jihozlar tayyorlanadi. 6. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi. 7. Nafasni sanash uchun bemor karovatga o‘tirgan yoki yotgan bo‘lishi kerak. 8. Bemor oldida joylashib o‘tiriladi va bemorni chalg‘itish uchun uning qo‘lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi. 9. Hamshira qo‘lini bemorning biligidan

				<p>ushlab, agar ko'krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo'lsa bemorning ko'krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo'ygandek qo'yadi.</p> <p>10.Nafas olish sekundomerdan foydalangan holda sanaladi.</p> <p>11.Nafas olish sanalganda uning maromini, sonini, chuqurligini va tipini baholanadi.</p> <p>12.Nafas harakatlari 1 daqiqa davomida sanaladi.</p>
5	<p>Hushdan ketganda birinchi yordam ko'rsatish.</p>	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372085</p>  	<p>Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta ,Bir martalik qo'lqoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O'ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h</p>	<p>1. Avvalo xavfsizlikni ta'minlang: O'zingiz va jabrlanuvchi uchun xavfsiz joyda ekaningizga ishonch hosil qiling (masalan, yo'l o'rtasida bo'lsa, uni chetga olib chiqing</p> <p>2.BIRINCHI YORDAM QADAMLARI: Jabrlanuvchini tekshiring Odamga ohang bilan murojaat qiling : "Yaxshimisiz?",</p>



Побрызгать лицо холодной водой,
дать понюхать ватку с нашатырным спиртом





1 Приподнимает ноги для улучшения притока крови к сердцу. Восстанавливает силы и готовится сменить уставшего участника. Координирует действия.


2 Проводит непрерывный массаж сердца. Отдает команду «Вдох!» после каждого пятого надавливания (в момент вдоха следует сделать паузу на 3-4 секунды). Контролирует эффективность вдоха ИВЛ.

3 Проводит вдох ИВЛ. Контролирует реакцию зрачков и пульс на сонной артерии.

uchun orqa yostiq (kichik) , Og'ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi

"Meni eshityapsizmi?" Javob bermasa, yengil silkitib ko'ring.
3. Burun tagiga paxtaga shimdirilgan nashatir spirti tutqazish mumkin – bu odamning o'ziga kelishiga yordam beradi. Ammo nashatirli paxtani burunga tiqmaslik, uni ichkariga quyib yubormaslik va hushsiz holatda odamni ichimlik bilan sug'ormaslik kerak – bu xatoliklar odamga zarar yetkazishi mumkin.
4. Nafas olishni va yurak urishini tekshiring. Nafas chiqishini og'iz yoki burundan eshiting yuzingiz bilan sezishga harakat qiling.
5. Ko'krakning ko'tarilishini kuzating. Nafas va urishni aniqlash 10 soniyadan oshmasligi kerak.
6. Agar nafas olmasa yoki yurak urishi to'xtagan bo'lsa: Zudlik bilan tez yordam chaqiring (103). Yurak urishini sun'iy yo'l bilan tiklash (KPR) boshlang: Ko'krakning

				<p>markaziga ikki qo‘l ni qo‘yib, har bir bosish 5–6 sm chuqurlikda va daqiqasiga ~100–120 marta bo‘lishi kerak.</p> <p>7. Agar nafas olayotgan bo‘lsa, ammo hushsiz bo‘lsa: Uni yonbosh holatga o‘tkazing (stabil yon holat): Nafas yo‘llari ochiq bo‘lishi uchun tilni orqaga tushib qolishining oldini oladi.</p> <p>Nafasini va holatini doimiy kuzatib boring. Kiyimlarini bo‘shating Yoqa, belbog‘, sutyen yoki boshqa qisuvchi kiyimlarni yeching.</p>
6	Antropometriya o‘tkazish	<p>Ulchov tasmasi</p> 	<p>santimetrli o‘lchov tasmasi; ruchka; suyuq sovun</p>	<p>Mijozdan issiq yoki qalin kiyimlarini yechishini iltimos qiling;</p> <p>O‘lchashni yupqa kiyim ustidan amalga oshiring;</p> <p>Mijozdan o‘lchash tasmasini gavda atrofidan (pastki qovurg‘a va tos suyagining yuqori nuqtasi orasida joylashgan markaziy nuqtada) o‘tkazishni iltimos qiling;</p> <p>O‘lchash tasmasi bir xil sathda turganligiga</p>

				<p>ishonch hosil qiling;</p> <p>Mijozdan gavdasining og'irligini bir tekisda taqsimlagan holda, oyoqlarini birga qo'yishini iltimos qiling;</p> <p>Qo'llarini bo'shashgan holatda tutishi;</p> <p>Me'yoriy nafas olib so'ngra nafas chiqarishini iltimos qiling;</p> <p>Bel aylanasi uzunligini o'lchang;</p> <p>O'lchash tasmasi qattiq siqmagan holda, teriga yopishib turishi lozim (rasmlarga qarang).</p> <p>Mijozdan santimetrli tasmani qaytarab oling;</p> <p>Qo'llarni sovun bilan yuving.</p> <p>Me'yorida bel aylanasi erkaklarda 100 sm , ayollarda 90 sm bo'lishi kerak</p>
7	Tana haroratini o'lchash.		tibbiy termometr, sochiq, harorat daftari, zararsizlantiruvchi eritma solingan idish (1% li xloramin eritmasi)	<p>Qo'l yuviladi va quritiladi.</p> <p>Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi.</p> <p>Bemor qulay vaziyatda yotqiziladi.</p> <p>Termometr olinadi va simob ustuni silkitib tushiriladi.</p> <p>Termometr</p>

				<p>qo'yiladigan soha ko'zdan kechiriladi va sochiq bilan quruq qilib artiladi.</p> <p>Termometr teri burmasiga qo'yiladi. Bunda termometrtdagi simob rezervuari badanga tegib turishi kerak.</p> <p>10 daqiqadan so'ng termometr olinadi.</p> <p>Termometrtdagi ko'rsatgich aniqlanadi.</p> <p>Termometr ko'rsatgichi harorat daftariga qayt qilinadi.</p> <p>Termometr simob ustuni pastga tushguncha silkitiladi.</p> <p>Termometr zararsizlantiriladi.</p> <p>Harorat varaqasiga qayd qilinadi.</p> <p>Termometrni zararsizlantirish: termometr zararsizlantiruvchi eritmalaridan biriga solib qo'yiladi (2% li xloramin eritmasiga 30 daqiqaga, 3% perikis vodorodli eritmasiga 80 daqiqaga, 0,5% li dizoksan eritmasiga 20 daqiqaga)</p> <p>oqar suvda chayiladi va quruq qilib artiladi.</p> <p>Termometr quruq joyda, tagiga paxta solingan idishda saqlanadi.</p>
--	--	--	--	---

8

Kollaps ,
Shokda
birinchi
yordam.



VectorStock VectorStock.com/0372085



Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta , bir martalik qo‘lqoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O‘ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h uchun orqa yostiq (kichik) , Og‘ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi

1. Holatni baholash va yordam chaqirish Jabrlanuvchining holatini tezda baholang: hushida yoki yo‘qmi, nafas olyaptimi. Tez yordam 103 chaqiring.
2. Jabrlanuvchini yotqizing, iloji bo‘lsa beliga orqa bilan, tekis joyga. Oyoqlarini biroz ko‘tarib qo‘ying – bu miya va yurakka qon oqimini yaxshilaydi.
3. Agar voqea yopiq joyda bo‘lsa, derazani oching, shamollatish yarating. Kiyimlarning yoqasini, belbog‘ini, tugmalarini yeching, siqib turgan qismlarni bo‘shating.
4. Boshni yon tomon ga buring, bu tilning orqaga tushib nafas yo‘llarini to‘sisib qo‘y masligi uchun zarur. Agar qayt qilish ehtimoli bo‘lsa, yonbosh yotqizing.
5. Terisi sovuq, oqarib ketgan bo‘lsa – tanani iliqlashtirish choralarini ko‘ring. Sovuq ter chiqishi – bu qon aylanishining buzilganidan darak



beradi.
Nashatir spirtiga shimdirilgan paxtani burun tagiga olib boring (1–2 soniyaga). Agar nashatir bo‘lmasa, odekolon bilan artish mumkin.

7. Og‘ir holatlarda nafas va yurakni tekshirish
Nafas yoki yurak urishi yo‘q bo‘lsa: Sun‘iy nafas (masalan, “og‘izdan og‘izga”) Yurakni bilvosita massaji (ko‘rakni 100–120 marta daqiqasiga bosish)

8. Agar bemor hushiga kelsa: Sokin yotishini ta‘minlang. Suyuqlik bering (masalan, iliq shirin choy), agar qusmayotgan bo‘lsa Avval ichib yurgan dori vositalarini o‘zi istasa, faqat o‘zi qabul qilgan dorilarni bering

9

Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.



Sun'iy nafas berish uchun niqob yoki plyonka, avtomatlashtirilgan tashqi defibrilyator, gigiyenik qo'lqoplar, se kundomer, yassi va qattiq sirt, antiseptik vositalar.

1. Bemor holatini tayyorlash: Bemor qattiq va tekis sirt ustiga yotqiziladi. Ko'krak va qorin qismini siqib turgan kiyimlardan butunlay ozod qilinadi.

2. Qutqaruvchi bemorning chap tomonida joylashadi. Chap qo'l kafti ko'krak suyagining pastki uchdan bir qismiga, ya'ni hanjarsimono'simtada n 2-3 smyuqoriga vertika 1 holatda qo'yiladi.

3. Qo'llarning joylashuvi: O'ng qo'l chap qo'lning ustiga qo'yiladi. Bunda bilaklar tekis, kaftlar yumshoq bukilgan, barmoqlar esa na chap kaftga, na bemorning ko'krakiga tegmasligi kerak.

4. Ikkala qo'l to'g'ri va bukilmagan holatda bo'lishi kerak. Qutqaruvchi o'z vaznidan foydalangan holda ko'krak suyagini umurtqa tomon 4-5 sm bosadi. Har bir bosish taxminan 0.5 soniya davom etadi, urishsiz, tiniq ritmda bajariladi. Tezlik: daqiqasiga 60-



80 marta.

5. Yurak massaji + sun'iy nafas:

Yurak massaji sun'iy nafas bilan birga olib boriladi.

Qutqaruvchilar sonidan qat'i nazar, nafas va bosish nisbati 2:15 bo'lishi kerak (2 marta nafas, 15 marta ko'krak bosilishi)

6 Yurak massajining samaradorlik belgilari:

a) Massaj vaqtida bo'yin

arteriyasida puls sezilishi

Ko'z qorachig'ining torayishi, yorug'likka reaksiya paydo bo'lishi

c) Teri rangi pushti rangga kirishi

d) O'z-o'zidan nafas olish va hushning tiklanishi

10 O'pka sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish



4 qavat qilib buklangan steril salftkalar, og'iz-halqum naychasi (havo yo'li), AMBU qopchasi bilan birga yuz niqobi.

1. Nafas yo'llarini ochish: Bemorni qattiq va tekis yuzaga yotqiziladi, boshi yon tomonga buriladi. Ko'rsatkich barmoq steril salftka yoki ro'molcha bilan o'ralgan holda, bemorning og'zi va halqumi begona narsalardan tozalanadi.


2."Og'izdan og'izga" usulida sun'iy nafas berish:Yordam ko'rsatuvchi bemor yoniga joylashadi.Bir qo'l ostidan bemor ning bo'ynini ushlab, ikkinchi qo'l bilan peshonasini bosadi va boshini maksimal orqa ga egadi.

Ikki barmoq bilan burunni bekitadi, ikkinchi qo'li bilan og'izni biroz ochadi. Og'iz orqali mahkam yopib , kuchli va tez nafas (0.8–1.0litr) yuboradi.Bemor passiv ravishda nafas chiqaradi

Sanitar-gigiyena uchun nafas berishda steril salftka yoki bintdan foydalaniladi, ammo qalinmato qo'llanilmaydi.

Kattalarda nafas chastotasi: daqiqasiga 14–16 marta.

To'g'ri bajarilayotganini ko'krak qafasining harakati bilan



aniqlanadi: nafas olayotganda ko'tarilishi, chiqarayotganda tushishi.

3 Og'izdan burunga" usulida sun'iy nafas berish: Pastki jag' shikastlanganda yoki og'iz ochilmasa qo'llaniladi. Bosh orqaga egiladi, bir qo'l peshonada, ikkinchisi bilan pastki jag' yuqo riga ko'tariladi va og'iz yopiladi. Burun ni lablari bilan qamrab, nafas yuboriladi.


4. AMBU moslamasi bilan sun'iy nafas: Niqob bemorning yuziga qo'yiladi, og'iz va burunni to'liq yopadi.

Niqobning yuqori (burun qismi) qismi bosh barmoq bilan,

pastki qismi esa III, IV va V barmoqlar yordamida jag'ni yuqoriga ko'tarib mahkamlanadi.


